



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI RASMIY TASHRIF BILAN BELGIYAGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan Bryussel shahriga keldi.

Belgiya poytaxtining xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili Eduards Stiprays va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

24-oktabr kuni O‘zbekiston Prezidenti Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu

Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen bilan muzokaralar hamda Belgiyaliklar Qirolli Filipp bilan uchrashuv o‘tkazadi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik

to‘g‘risidagi bitimni imzolash marosimida ishtirok etadi.

Tashrif doirasida Yevropaning yetakchi kompaniyalari va moliyaviy tuzilmalarining vakillari bilan davra suhbatlari o‘tkazilishi ham rejalashtirilgan.

O‘ZA

Toshkent – Bryussel:

YEVROPA ITTIFOQI BILAN STRATEGIK MUNOSABATLARNING YANGI BOSQICHI

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23-oktabr kuni rasmiy tashrif bilan Bryusselga bordi.

Belgiya va Yevropa Ittifoqi poytaxti — Bryussel umumyevropa siyosati va iqtisodiy kun tartibini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bryussel nafaqat Yevropaning siyosiy markazi, balki yetakchi xalqaro tashkilotlar, diplomatik missiyalar va moliyaviy institutlar manfaatlarini kesishadigan nuqtadir. Aynan shu yerda YI rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari va tashqi hamkorlar bilan aloqalarini belgilovchi qarorlar qabul qilinadi.

Boshlangan tashrif O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar va hamkorlik tarixida hal qiluvchi bosqich bo‘ladi deb aytilish mumkin. Tashrif doirasida O‘zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasida mamlakatimizdagi jadal islohotlar va tashqi siyosiy faoliyatni aks ettiruvchi hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan yangi Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim imzolaniishi rejalashtirilgan.

Yevropa hamjamiyatlari bilan aloqalar 1992-yil 15-aprelda O‘zbekiston hukumati va Yevropa Ittifoqi komissiyasi o‘rtasida o‘zaro anglashuv memorandumini imzolaniishi bilan boshlandi. Diplomatik munosabatlar 1994-yil 16-noyabrda o‘rnatildi, 1995-yilda esa Bryusselda O‘zbekiston elchixonasi ochildi, u ham Yevropa Ittifoqidagi vakolatxona vazifasini bajaradi. 2011-yildan buyon Toshkentda Yevropa Ittifoqi delegatsiyasi faoliyat yuritilmoqda.

► Davomi 2-betda



Tarixiy voqea

MADANIY MULOQOT — DUNYODA BARQARORLIKKA ERISHISHNING MUHIM VOSITASI

UNESCOning Samarqand shahrida bo‘lib o‘tadigan 43-sessiyasi ana shunday aloqalarni kuchaytirishda qanday o‘rin tutadi?



Dunyo hamjamiyati global o‘zgarishlarni boshidan kechirayotgan bugungi davrda madaniy meros asrash lozim bo‘lgan manbagina emas, rivojlanishning muhim drayverlaridan biri sifatida ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo‘nalishda davlatlar sa‘y-harakatlarni muvofiqlashtirish, ko‘rilayotgan chora-tadbirlarni monitoring va nazorat qilish hamda tavsiyalar ishlab chiqishda UNESCOning faoliyati muhim o‘rin tutadi.

Bugun 195 mamlakat mazkur nufuzli xalqaro tashkilot a‘zosi. O‘zbekiston unga 1993-yilda a‘zo bo‘lgan va tashkilot bilan madaniy merosni muhofaza qilish, ta‘lim sifatini oshirish, ilm-fanni rivojlantirish va jamiyatda inklyuzivlikni ta‘minlash kabi sohalarida samarali hamkorlik qilib kelmog‘da.

► Davomi 3-betda



24-oktabr — BMT tashkil topgan kun

TARAQQIYOT VA TINCHLIK: BMTNING 80 YILLIK YO‘LI

BMT XX asrda hududiy jihatdan katta va kichik, iqtisodiy jihatdan boy va kambag‘al davlatlar, jamiyatlar, turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini himoya qilish, dunyoda yalpi tinchlikni ta‘minlash, iqtisodiy farovonlik, madaniy rivojlanish, tabiiy va ekologik muhitni saqlash va himoya qilishga mas‘ul xalqaro universal tashkilot sifatida ta‘sis etildi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishining dastlabki yillaridayoq xalqlar va davlatlar uchun, avvalo, tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlaydigan, turli urush va nizolarning oldini olishga harakat qiladigan, inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlaydigan xalqaro tashkilot tuzish zarurati vujudga keldi. BMTni tashkil etish jarayoni uzoq vaqt davom etdi hamda Ikkinchi jahon urushining eng qizg‘in davrlariga to‘g‘ri keldi. Urush oxirlarida BMT nizomi ishlab chiqildi va 1945-yil 24-oktabrdan kuchga kirdi. Bu kun jahon tarixiga “BMT kuni” sifatida yozildi.

BMT xavfsizlik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, xalqaro munosabatlar va boshqa sohalaridagi muammolarni hal etish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarning preventiv diplomatiya asosida oldini olish bo‘yicha asosiy global markazga aylandi. Unga a‘zo bo‘lish, avvalo, mustaqillik va suverenlikning belgisi, boshqa jihatdan esa davlatning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi va e‘tirof etilishini ham bildiradi.

► Davomi 2-betda



Tahlil

Bugungi dunyo go‘yoki beqarorlik to‘foni og‘ushiga tushgan kemaga o‘xshaydi: iqtisodiy silkinishlar, geosiyosiy to‘qnashuvlar va tabiiy muvozanatning izdan chiqishi insoniyat hayotini yangi, kutilmagan sinovlarga duch qilyapti. Bu og‘ir sharoitda kambag‘allik nafaqat moliyaviy muammo, balki global xavf darajasiga chiqmoqda. Endi davlatlar nafaqat iqtisodiyotini qayta tiklashi, balki umuman yangi fikrlash tarziga o‘tishi — o‘z taraqqiyot mexanizmini insoniylik mezonlari asosida qayta qurishi talab etilmoqda.



Joriy yilning 17-18-sentabr kunlari Namanganda o‘tkazilgan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” xalqaro forumi O‘zbekistonning mazkur sohadagi sa‘y-harakatlari nafaqat ichki auditoriya, balki xalqaro hamjamiyat e‘tiborini ham qozonganini yana bir bor tasdiqladi. O‘zbekiston bu muammoga nisbatan qat‘iy pozitsiyani belgilab, kambag‘allikka qarshi kurashish masalasini davlat siyosati darajasiga ko‘tardi.

Har qanday iqtisodiy strategiya yoki ijtimoiy

dasturning markazida inson manfaatini turmasa, u uzoqni ko‘zlagan islohotga aylanmaydi. Kambag‘allikka qarshi kurash ham aynan shu nuqtayi nazaridan yondashishni talab qiladi. Bu masala nafaqat moddiy ehtiyojni bartaraf etish, balki inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish, uning jamiyatda munosib o‘rin egallashini ta‘minlashdan iborat. Bugun yurtimizda bu borada tizimli ishlar olib borilayotgani sir emas.

► Davomi 4-betda

25-oktabr — Ichki ishlar organlari xodimlari kuni

XALQ MEHRI VA ISHONCHINI QOZONIB...



Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ikkita eng ustuvor masala — jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash hamda aholi sog‘lig‘ini muhofaza qilishga alohida e‘tibor qaratilgan. Chunki tinchlik va sog‘liq har bir inson, butun xalqimiz uchun bebaho ne‘matdir. Shu bois, so‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimi bilan birga ichki ishlar tizimini kompleks isloh qilish, uning tarkibiy tuzilmalarini optimallashtirish, quyi bo‘g‘in bo‘linmalari natijadorligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar kechmoqda.

Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, ichki ishlar xodimlari tunu kun, har qanday sharoitda el xizmatida. Bu pandemiya sharoitida, Buxoro va Sardobadagi og‘ir

kunlarda yaqqol ko‘rindi. Boshqa payt ham xavf-xatar doim ularning yonida.

► Davomi 5-betda



QADIM O‘TMISH VA ILMIY ASOS UYG‘UNLIGI

Navoiyning turizm salohiyatida o‘z aksini topmoqda

Oybek ABDIMO‘MINOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

➤ Boshlanishi 1-betda

Tashkilot o‘z faoliyati davomida dunyoda tinchlikni qaror toptirish, xavfsizlikni ta’minlash borasida salmoqli ishlarni bajardi. Xususan, Ikkinchi jahon urushidan keyin yuzaga kelgan “sovuq urush” davrida jahonning notinch mintaqalarida tinchlik o‘rnatish operatsiyalari, qurolli to‘qnashuvlar yuz bergan hududlarda iqtisodiyotni oyoqqa turg‘izish, mustamlakachilikka barham berish, yadro quroli tarqalishining oldini olish, ommaviy qurolsizlanish, irqiy kamsitishning barcha shakliga barham berish, kasalliklar va qashshoqlikka qarshi kurashish, inson huquqlarini himoya qilish, ekologik xavflarni bartaraf etish kabi global muammolarni yechishda BMT izchil faoliyat yuritdi.

BMT tashkil topgan davrda juda ko‘p mamlakatlar turli davlatlarning siyosiy mustamlakasi bo‘lib, ayrim xalqlarning qaramligi hatto bir necha asrlardan buyon davom etayotgan edi. Bu davrda BMT butun jahonda mustamlakachilikka barham berish hamda xalqlarni ozodlikka chiqarish, har bir davlat o‘z taqdirini va siyosiy yo‘lini o‘zi belgilashi uchun tinch va huquqiy kurash olib bordi. Davlatlar va xalqlarga ozodlik berishning xalqaro huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqdi hamda xalqaro hamjamiyat bilan kelishgan holda amaliyotga kiritdi. Xususan, 1945-yilda dunyo aholisining 1/3 qismi mustamlaka edi. BMT tashabbusi bilan 100 ga yaqin davlat mustaqil bo‘ldi. BMT 70 dan ortiq tinchlikparvar missiyani amalga oshirdi. Diplomatik vositalar bilan ko‘plab qurolli to‘qnashuvlarning oldini oldi. BMT tashkilotlari (UNICEF, UNESCO, JSST va boshqalar) orqali ta’lim, sog‘liqni saqlash, oziq-ovqat, ekologiya, tabiiy ofatlarga qarshi kurash sohalarida keng ko‘lamli yordam berib keldi.

BMT yadro urushidan butunlay voz kechish talablarini ilgari surdi. Bu boradagi qat’iy pozitsiyasi “sovuq urush” sharoitida qurollanish poygasini hamda yadroviy qurollanish, “dunyo siyosiy maydonida hukmron” davlatlarning o‘zaro yadro

quroli bilan tahdid qilish xavfini nisbatan kamaytirish, xalqaro munosabatlarda keskinlikni yumshatishga olib keldi. BMT jahon siyosatida tinchlik va xavfsizlik konsepsiyasini qat’iy ilgari surdi. Shunday sharoitda yangi tinchlik falsafasi qiyinchilik bilan bo‘lsa-da o‘ziga yo‘l ochib bordi. Bu jarayonlarda tashkilot xalqaro maydon va vositachi rolini bajardi. Natijada tez orada “sovuq urush” tugagani e‘lon qilindi. Yuqorida keltirilgan misollar va dalillar bu davrda, ya’ni 1945-1991-yillar BMT faoliyatining “oltin davri” bo‘lganini ko‘rsatadi.

BMTning 80 yillik faoliyatida juda ko‘p ijobiy natijalarga erishildi. Ammo dunyo o‘zgargan sari tashkilot ham o‘zini isloh qilishi, tezkor va samarali qaror qabul qilish salohiyatini oshirishi zarur. U zamonaviy xalqaro munosabatlari sharoitida ham butun dunyoda xalqaro muammolarga turli yondashuv va yechimlar ko‘rsatadigan yagona universal global tashkilot maqomini saqlab qoldi. Shunga qaramay, insoniyat tarixida yuz berayotgan keskin siyosiy jarayonlar va voqealiklar tashkilotni isloh qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. BMTni isloh qilish qator siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog‘liq. Dunyoda xalqaro muammolar murakkablashdi, jahon hamjamiyatiga yangi tahdidlar yuzaga keldi. Terrorizm, iqlim o‘zgarishi, transmilliy jinoyatlar va boshqa global muammolar paydo bo‘ldi. Ularni hal etish uchun yangi va samarali mexanizmlarga ehtiyoj tug‘ildi. Xalqaro siyosatda yirik davlatlarning ta’siri yanada oshib bordi.

Xalqaro geosiyosiy muammolarni hal etishda BMT faoliyatidagi eski mexanizm va qoidalar samarasiz bo‘lib qoldi.

XX asr oxirida dunyo geosiyosati va xaritasidagi o‘zgarishlar, xalqaro siyosiy



“ O‘zbekiston 1992-yil 2-mart kuni BMTga a’zo bo‘ldi. U mamlakatimiz uchun muhim global hamkor sifatida katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston BMT bilan tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, iqtisodiy taraqqiyot, iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish va barqaror atrof-muhitni saqlash, ta’lim, sog‘liqni saqlash va tenglik, madaniyat va ijtimoiy sohalarida hamkorlik qilmoqda.

maydonga yangi faktorlarning kirib kelishi, xalqaro siyosiy muammolarga turlicha yondashuv ham tashkilot faoliyatining samaradorligiga ta’sir ko‘rsata boshladi.

BMT shunchaki turli urush va nizolarga munosabat bildiradigan hamda to‘xtatishga chaqiradigan xalqaro tuzilmaga aylanib bormoqda. Uning o‘zaro urishayotgan tomonlar yoki turli etnik nizolar yuz bergan hududlarda tomonlarni tinchlikka chaqirish, har ikki tomon uchun ham manfaatli kelishuvlarni amalga oshirish, eng asosiysi, tinchlikka majburlash mexanizmlari o‘ta samarasiz bo‘lib qoldi. Tashkilotning missiyasi faqat urush va nizolar yuz bergan hududlarda gumanitar yordam borasidagi faoliyat bilan cheklanmoqda. Shuningdek, tobora globallasib borayotgan, dunyoning turli mintaqalarida katta-kichik nizolar,

etnik qarama-qarshiliklar yuz berayotgan, jahon tizimida siyosiy, iqtisodiy va ekologik inqirozlar, iqlim o‘zgarishlari avj olayotgan sharoitda tashkilotni tubdan isloh qilish murakkab, ulkan iqtisodiy sarmoya, eng muhimi, global konsensusni talab etadi. Tashkilotni bosqichma-bosqich isloh qilish, zamon talablariga mos sharoitda ishlashiga imkon yaratish zarur.

O‘zbekiston 1992-yil 2-mart kuni BMTga a’zo bo‘ldi. U mamlakatimiz uchun muhim global hamkor sifatida katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston BMT bilan tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, iqtisodiy taraqqiyot, iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish va barqaror atrof-muhitni saqlash, ta’lim, sog‘liqni saqlash va tenglik, madaniyat va ijtimoiy sohalarida hamkorlik qilmoqda. Bu hamkorlik tufayli qator muhim va ijobiy natijalarga erishildi. O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT doirasida Markaziy Osiyo mintaqasi yadro qurolidan xoli hudud sifatida e’tirof etildi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida BMT bilan hamkorlikda yangi tendensiyalar, o‘zaro munosabatlarda yangi bosqich boshlandi. 2017, 2024-yillarda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonda bo‘ldi. Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 72-, 75-, 76-, 78- va 80 sessiyalarida, shuningdek, 2021-yil BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida nutq so'zladi.

BMT bilan hamkorlikda 2017-yili Samarqand shahrida “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik”, 2018-yili Afg‘oniston masalasiga bag‘ishlangan “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida oliy darajadagi xalqaro konferensiyalar bo‘lib o‘tdi.

2020-yili “Yoshlar 2020: global miqyosdagi birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari” Samarqand forumi, 2021-yili “Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida” xalqaro Xiva forumi, 2022-yili “BMT Global aksilterror strategiyasini amalga oshirish bo'yicha qo'shma harakatlar rejası doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy hamkorligi” xalqaro anjumanlari tashkil etildi.

Yangi Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimning imzolanishi O'zbekistonning Yevropa bilan o'zaro tushunish, ochiqlik va ishonchni mustahkamlashga qaratilgan izchil tashqi siyosatining mantiqiy davomi bo'ladi. Hujjat savdo va sarmoyadan tortib, fan, texnologiya, madaniyat va atrof-muhitni muhofaza qilishgacha bo'lgan keng ko'lamli sohalarni qamrab oladi.

Ushbu kelishuv nafaqat iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish, balki siyosiy muloqotni kengaytirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash, global muammolarga birgalikda javob berish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu

2018-yilda O‘zbekiston tashabbusi bilan Orolbo‘yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'p sheriklilik asosidagi Trast fondi tashkil etildi. O‘zbekiston tarixida ilk marotaba 2021-2023-yillarda BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining to'la huquqli a'zosi bo'ldi. 2022-yilda BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashining Rivojlanish maqsadlarida fan va texnologiyalar masalalari bo'yicha komissiyasi, 2024-yilda 2025-2027-yillar uchun BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (ECOSOC), 2024-yilda 2024-2027-yillar uchun Xalqaro mehnat tashkiloti ma'muriy kengashiga a'zo etib saylandi.

O‘zbekiston Prezidentining tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasida qator rezolyutsiyalar qabul qilindi. Ular nafaqat Markaziy Osiyoning iqtisodiy va siyosiy rivoji, balki butun dunyodagi global muammolarni hal etishga ham muhim ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” rezolyutsiyasi mintaqaviy o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik va boshqa xavf-xatarlarga qarshi kurashish hamda Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasi esa din va madaniyatlararo bag‘rikenglikni, inson huquqlari va boshqa asosiy tamoyillarni rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e’lon qilish” rezolyutsiyasida mintaqada, xususan, Orol dengizi hududida ekologik innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etish maqsad qilingan.

“ O‘zbekiston tashabbuslari mintaqaviy va global tinchlik, millatlararo va dinlaro bag‘rikenglik, ekologik barqarorlikni ta’minlash, mintaqalar va mamlakatlar o‘rtasida hamkorlikni yanada mustahkamlash, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish, transport kommunikatsiyalarini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz va BMT o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro ishonchga qurilgan. O‘zbekistonning islohotlarga sodiqligi, xalqaro majburiyatlarga rioya qilishi tuzilmaning yurtimizga ishonchini oshirdi. Davlatimiz BMT bilan birga Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha faol ishlamoqda. O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlari tuzilma tomonidan qo'llab-quvvatlab kelinmoqda.

aloqalar kuchaydi, gumanitar hamkorlik kengaydi. Mamlakatlar savdo, investitsiya, innovatsiyalar, “yashil” energiya, logistika, ta’lim, madaniyat va boshqa sohalarida konstruktiv hamkorlikni davom ettirmoqda.

“ Belgiya tomoni O‘zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi iqtisodiyotni liberallashtirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, hukumat ochiqligini oshirishga qaratilgan islohotlar samaralarini ijobiy baholaydi. Bryussel rasmiy Toshkentning jamiyatning barcha jabhalarini modernizatsiyalash borasidagi sa'y-harakatlarini olqishlab, bu islohotlar barqaror rivojlanish va O‘zbekistonga xalqaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qilishini ta’kidladi.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Prezidentining Bryusselga boshlangan rasmiy tashrifi va Yevropa Ittifoqi bilan keng qamrovli yangi bitim imzolanishi o'zbek diplomatiyasi tarixida muhim voqea bo'ladi. Bu qadam O'zbekistonning Yevropadagi mavqeyini mustahkamlabgina qolmay, hamkorlikni yanada rivojlantirish, sarmoyalarni jalb etish, yangi texnologiya va g'oyalarni almashish uchun kuchli turtki bo'lib xizmat qiladi. Belgiya va Yevropa poytaxti hamda xalqaro diplomatiya markazi bo'lgan Bryussel Yevropaning O'zbekistonga ishonchi ortib borayotgani, uning Yevroosiyoqda barqaror rivojlanish va o'zaro hamjihatlikni ta'minlashdagi muhim roli e'tirof etilgan maydonga aylanadi.

“Dunyo” AA

Toshkent – Bryussel: YEVROPA ITTIFOQI BILAN STRATEGIK MUNOSABATLARNING YANGI BOSQICHI

➤ Boshlanishi 1-betda

O‘shandan buyon Yevropa kengashi prezidentining O‘zbekistonga uchta — 2019, 2022 va 2025-yillarda, shuningdek, Yevropa komissiyasi prezidentining 2025-yilda tashrifi amalga oshirildi.

O‘zbekiston “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” formati doirasidagi hamkorlikni rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda. 2023-yilning 2-iyun kuni Cho‘lponota shahrida O‘zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi davlatlari rahbarlari uchrashuvi doirasida Yevropa Kengashi prezidenti Sharl Mishel bilan muloqot qildi. O‘zbekiston Prezidenti 2023-yil 18-sentabr kuni Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasidagi ishtiroki doirasida ham Yevropa kengashi prezidenti bilan muzokara o‘tkazdi. O‘zbekiston Prezidentining Yevropa kengashi prezidenti bilan BMTning iqlim bo'yicha sammitlaridagi ishtiroki doirasida 2023-yil 1-dekabrda Dubayda va 2024-yil 12-noyabrda Bokuda navbatdagi uchrashuvlari bo'lib o'tdi.

O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2025-yil 4-aprel kuni Samarqand shahrida Yevropa kengashi va Yevropa komissiyasi prezidentlari Antoniu Koshta va Ursula fon der Lyayen, shuningdek, Markaziy Osiyo davlat rahbarlari ishtirokida “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi”ning birinchi sammiti bo‘lib o‘tdi. 2025-yil 4-aprelda Samarqand iqlim forumining ochilishida Yevropa Ittifoqi yetakchilari ham ishtirok etdi. “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi

sammiti yakunlari bo'yicha munosabatlarni strategik sheriklik darajasiga ko'tarishni e'lon qiluvchi qo'shma deklaratsiya hamda muhim xomashyo sohasida hamkorlikni chuqurlashtirish niyatlari to'g'risidagi deklaratsiya qabul qilindi.

O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlarda erishilgan asosiy yutuqlardan yana biri mamlakatimizning umumiy imtiyozlar tizimi — GSP+ doirasida benefitsiar maqomga ega bo‘lganidir. Bu tizim O‘zbekiston mahsulotlarini Yevropa bozoriga imtiyozli shartlarda eksport qilishga yo‘l ochdi. Ushbu maqom nafaqat O‘zbekistonning Yevropaga eksporti o‘sishini rag‘batlantirdi, balki mamlakatning inson huquqlari, mehnat standartlari, atrof-muhitni muhofaza qilish va samarali boshqaruv sohalaridagi yutuqlari e’tirof etilishiga xizmat qildi.

Iqtisodiyot, savdo va investitsiyalar bo'yicha O'zbekiston — Yevropa Ittifoqi quyi qo'mitasi savdo-iqtisodiy masalalarda o'zaro hamkorlikning muhim mexanizmi hisoblanadi.

2024-yilda O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 6,4 milliard dollarni tashkil etdi. 2025-yilning yanvaridan avgustigacha bu ko‘rsatkich 4,5 milliard dollardan oshdi, Yevropa kompaniyalari bilan amalga oshirilgan loyihalar portfelii esa 30 milliard yevroga yetdi. O‘zbekistonning strategik hamkorlari qatoriga “Siemens”, “Linde Group”, “CLAAS”, “Airbus”, “Basf”, “Alstom”, “Total”, “Orano”, “OTP Group” va boshqalar kiradi. O‘zbekistonda Yevropa



Ittifoqi mamlakatlari sarmoyasi ishtirokidagi 1069 ta korxona, shu jumladan, 304 ta korxona 100 foiz Yevropa kapitali bilan faoliyat yuritmoqda.

YI O‘zbekistonning mintaqada demokratik o‘zgarishlar, bozor islohotlari va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari yo‘lidagi tashabbuslarini izchil qo‘llab-quvvatlaydi. Bryussel Markaziy Osiyoda energetika va transport infratuzilmasi, suv resurslari, raqamlashtirish va ta’limni

rivojlantirish loyihalarida faol ishtirok etib, O‘zbekistonni mintaqadagi asosiy hamkor sifatida ko‘radi.

Yevropa Ittifoqi bilan madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik ham jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. O‘zbekiston Yevropa Ittifoqining 2021-2027-yillarga mo‘ljallangan “Erasmus+” ta’lim dasturi va 2021-2027-yillarga mo‘ljallangan “Horizon Europe” ilmiy-tadqiqot dasturining faol ishtirokchisi hisoblanadi.

O‘zbekistonning pragmatik va tinchlikparvar siyosat yurituvchi ishonchli sherik sifatida tan olinishi ramzidir.

Tashrif doirasida davlatimiz rahbari Belgiya Qirolli Filipp bilan uchrashadi. Belgiya O‘zbekistonning Yevropadagi asosiy hamkoridir.

O‘zbekiston va Belgiya o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro hurmat va ishonch asosida rivojlanib bormoqda. Keyingi yillarda siyosiy muloqot faollashdi, iqtisodiy

UNESCOning Samarqand shahrida bo‘lib o‘tadigan 43-sessiyasi ana shunday aloqalarni kuchaytirishda qanday o‘rin tutadi?



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Boshlanishi 1-betda

Keyingi yillarda O‘zbekistonning UNESCO bilan hamkorligi yangi bosqichga ko‘tarildi. Mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘sinı yanada oshirish va mustahkamlashda, ikki va ko‘p tomonlama aloqalarni kengaytirish va chuqurlashtirishda UNESCO muhim platforma vazifasini o‘tab kelmoqda. Buning natijasida 2017-2023-yillarda milliy madaniy merosimizning 14 ta noyob namunasi UNESCO ro‘yxatlaridan joy olib, insoniyat merosi sifatida xalqaro miqyosda e‘tirof etildi. Buxoro shahri Ijodkor shaharlar tarmog‘iga kiritildi. 2023-yil sentabr oyida UNESCO bosh qarorgohida buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligi keng nishonlandi.

2023-yil 7-22-noyabr kunlari UNESCO Bosh konferensiyasining Parij shahrida bo‘lib o‘tgan 42-sessiyasi yakunida O‘zbekistonning 43-sessiyani 2025-yilda Samarqand shahrida o‘tkazish tashabbusi bir ovozdan qo‘llab-quvvatlangani jahon hamjamiyati tomonidan muhim voqea sifatida e‘tirof etildi. Shu kunlarda yurtimizda ushbu nufuzli xalqaro anjumanni yuqori darajada o‘tkazishga har jihatdan puxta tayyorgarlik ko‘rilmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston va UNESCO hamkorligini yanada mustahkamlash, madaniy-ma‘rifiy loyihalarni rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar qilyniypti.

O‘zbekiston va UNESCOning ko‘p yillik hamkorligi mamlakatimiz, jahon ilm-fani va tamadduni rivojida qanday o‘rin tutmoqda? 40 yil ichida birinchi marta Bosh konferensiyaning Parijdan tashqarida o‘tkazilishi dunyoda madaniy muloqotni rivojlantirish orqali tinchlik va taraqqiyotga erishishda qanday o‘rin tutadi? Anjuman arafasida olimlar va ekspertlarga ana shunday savollar bilan yuzlandik.

TADBIRGA QIZG‘IN TARADDUD KO‘RILMOQDA

Anvarjon MIRKOMILOV,
Oliy Majlis huzuridagi jamoat
fondi mas‘ul xodimi



Qadimdan sivilizatsiyalar chorrahasi hisoblangan O‘zbekiston bugungi kunda turli nufuzli xalqaro tadbirlarga mezbonlik qilishi odatiy holat va ijobiy an‘anaga aylandi. Bu mamlakatimizning dunyo uchun ochilgani va tashqi diplomatiya borasidagi muvaffaqiyatlar ifodasi, desak aslo mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

UNESCO norasmiy ravishda “BMTning aql laboratoriyasi” deb ataladi. Javoharlar Neru o‘z vaqtida UNESCOga “insoniyat vijdoni” deb ta‘rif bergan.

UNESCO asosiy uchta organ — Bosh konferensiya, Ijroiya kengashi, Kotibiyatdan iborat. UNESCO Bosh konferensiyasi ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha BMTning oliy organi bo‘lib, har ikki yilda bir marta yig‘ilib, faoliyat yo‘nalishlarini belgilaydi, byudjetni qabul qiladi hamda yangi dasturlar va standartlarni tasdiqlaydi. Uning ishlarida UNESCOga a‘zo barcha davlatlar vakillari ishtirok etadi.

UNESCO tashkil topganidan buyon Bosh konferensiyalar asosan Parij shahrida o‘tkazilgan. 2023-yil 7-22-noyabr kunlari Parijda bo‘lib o‘tgan 42-sessiyada 43-sessiyaga mezbon sifatida Samarqand shahri tanlanishi O‘zbekiston uchun katta ishonch va ayni paytda mas‘uliyat hamdir. Ushbu qaror O‘zbekiston — UNESCO o‘rtasida yuqori darajadagi hamkorlik va ishonch mavjudligini, qolaversa, mamlakatimiz xalqaro jarayonlar markaziga aylanayotganini tasdiqlaydi. Sessiya tashkilot tashkil topganining 80 yillik tantanalarga to‘g‘ri kelayotgani bilan ham ahamiyatli.

Prezidentimizning shu yil 15-martdagi “2025-yilda UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining Samarqand shahrida o‘tkazilishiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ushbu tadbirga munosib hozirlik ko‘rish va yuqori saviyada o‘tkazishda muhim dasturilamal bo‘lmoqda. Qarorga asosan, tadbirga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tuzilgan va bo‘ljak sessiyani yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish

uchun barcha kuchlar safarbar etilishi belgilandi. Tashkiliy qo‘mita sessiyaga oid tadbirlarni tayyorlash va o‘tkazish rejasini ishlab chiqish maqsadida ishchi guruhlarini shakllantirib, tayyorgarlik ishlarini olib bormoqda.

Sessiya ishtirokchilari tashrifini tashkil etish, viza rasmiylashtirish, transport va tibbiy xizmat ko‘rsatish, ularning asosiy tadbirlar hamda madaniy dasturlarda ishtirokini ta‘minlash masalalari UNESCO bilan hamkorlikda hal etilmoqda. Anjumanga tayyorgarlik doirasida madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish bo‘yicha bir qancha loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Konferensiya infratuzilmaga katta sarmoya kiritish bilan birga O‘zbekistonning jahon tamadduni va madaniyatiga qo‘shgan hissasini aks ettiruvchi mediakampaniyalar, ko‘rgazmalar hamda tarixiy va madaniy merosni targ‘ib qilishga qaratilgan qator tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bundantashqari, esdalik tangalar va pochta markalarini muomalaga chiqarish rejalashtirilgan. Tadbir doirasida konferensiyaning xalqaro ahamiyatini yoritishga qaratilgan mavzuli ko‘rgazmalar, axborot kampaniyalari va medialoyihalar o‘tkaziladi.

Sessiya doirasida UNESCO yoshlar forumi, milliy komissiyalar yig‘ilishi, ilk bor Beruniy nomidagi O‘zbekiston — UNESCO mukofotini topshirish marosimi, shuningdek, muzeylarda sun‘iy intellektning o‘rniga oid xalqaro konferensiya tashkil etiladi. Shuningdek, Samarqand shahrining me‘moriy va madaniy yodgorliklarida, muzey va madaniy maskanlarda yangi ko‘rgazmalar, jahon yulduzlari ishtirokida konsert dasturlari tashkil qilinib, 150 dan ortiq tadbir o‘tkazilishi rejalashtirilgan.



Qadimiy va navqiron Samarqand yaqin kunlarda yana bir karra jahon ahli e‘tibor markazida bo‘ladi. Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 43-sessiya va uning doirasidagi tadbirlarda 194 davlatdan 5 mingdan ziyod ishtirokchi qatnashadi. UNESCO kotibiyatining o‘zidan 400 xodim tashrif buyurishi kutilyapti.

Shuningdek, davlat rahbarlari, hukumat arboblari, vazirlar va elchilar ham Samarqandda yig‘iladi. Shu bilan birga, Toshkent, Buxoro, Xiva va Shahrisabzda madaniy tadbirlar va qabullar o‘tkazilishi ko‘zda utulgan bo‘lib, bu shaharlarda ham mehmonxonalar tanlanib, delegatsiyalarga transport va boshqa xizmatlarni ko‘rsatish choralari ko‘rilmoqda.

Tadbir uchun mahalliy va xalqaro ommaviy axborot vositalari xodimlari akkreditatsiyadan o‘tkaziladi, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. “Silk Road Samarkand” majmuasi hududida matbuot markazi tashkil etiladi.

Mintaqamizda ilk bor o‘tadigan ushbu global tadbir xalqaro hamjamiyatga O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning ulkan sivilizatsiyasi salohiyatini yana bir bor namoyish etish, O‘zbekistonning UNESCO bilan keng ko‘lamli sherikligini yanada rivojlantirish va mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Bahor XIDIROVA tayyorladi.

EZGULIK VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR TARANNUMI

Shavkat IKROMOV,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa
doktori, dotsent



UNESCO — O‘zbekiston aloqalari mamlakatimiz mustaqillikka erishgan yillardan ancha avvalroq boshlangan edi. Bu o‘sha davrlardayoq mazkur nufuzli xalqaro tashkilot xalqimizning insoniyat sivilizatsiyasiga qo‘shgan ulkan hissasini yaxshi anglab yetganini ko‘rsatadi.

1993-yilda yurtimiz UNESCO a‘zosiga aylandi va munosabatlarning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi. 1994-yilda UNESCO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Milliy komissiyasi tashkil etildi.

Bugungi kunda mamlakatimiz mazkur tashkilot faoliyati va dasturlari bilan hamohang barcha yo‘nalishlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Qadimiy shaharlarimiz UNESCOning “Jahon madaniy merosi durdonalari” ro‘yxatiga kiritilishi, butun dunyoda buyuk ajdodlarimiz tavalludi, o‘zbek xalqining ma‘naviy-ma‘rifiy qadriyatlari, qadimiy shaharlari va obidalariga bag‘ishlangan yubileylar keng nishonlanishi, 1997-yildan “Sharq taronalari” xalqaro musiqiya festivali o‘tkazilishi, mintaqaviy va xalqaro anjumanlar salmog‘i buning isbotidir.

O‘tgan davr mobaynida Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabzdagi tarixiy yodgorliklar tashkilotning Jahon madaniy merosi durdonalari ro‘yxatiga kiritildi. Shuningdek, qator nomoddiy madaniy meros namunalari, biosfera rezervatlari hamda nodir hujjatlar Jahon xotirasi xalqaro reyestridan joy olgan.

2016-yildan keyin O‘zbekiston diplomatiyasida dunyo mamlakatlari bilan ochiq va do‘stona muloqot kengayishi jarayonida madaniy omilning roli ham sezilarli darajada oshdi. O‘zbekistonning xalqaro imijini, dunyo tizimidagi o‘miyarolini yanada mustahkamlashda, tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy sohalarida ustuvor maqsadlarga erishishda mamlakatning madaniy sivilizatsiyasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishga alohida e‘tibor qaratildi. Xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan madaniy-gumanitar hamkorlik kengaymoqda. Milliy madaniyat va ilm-fan yutuqlarini chet elda ommalashtirish yuzasidan faol chora-tadbirlar ko‘rilyapti. Jumladan, UNESCO bilan aloqalar ham yanada rivojlanmoqda.

Xususan, 2018-yilda davlatimiz rahbarining UNESCOning Parijdagi bosh qarorgohida tashkilot Bosh direktori Odrı Azule bilan uchrashuvi bu borada yangi istiqbollarni ochdi. O‘shanda O‘zbekiston bilan UNESCO aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan hamkorlik dasturi imzolandi. O‘z navbatida, O‘zbekiston Prezidenti 2019-yil 26-avgustda Samarqand shahrida Odrı Azulenı qabul qildi. Bu muloqotlar O‘zbekiston va UNESCO o‘rtasidagi konstruktiv muloqot izchil rivojlanishi, sheriklik munosabatlari mustahkamlanib borishiga xizmat qilmoqda.

GLOBAL HAMKORLIK DIPLOMATIYASI

Go‘zal SA‘DIYEVA,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa
doktori, dotsent



Bugun jahonda ro‘y berayotgan geosiyosiy o‘zgarishlar davrida davlatlar o‘rtasidagi madaniyatlararo muloqot, ta‘lim va ilmiy almashuvlar g‘oyat muhim rol o‘ynamoqda. Bunday muloqotlar, albatta, muayyan xalqaro tashkilotlar doirasida kechishi mamlakatlar o‘rtasida hamkorlikni va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday tashkilotlardan biri UNESCO bo‘lib, u BMTning tinchlikni mustahkamlash, tenglik va barqaror rivojlanishni ta‘lim, fan, madaniyat, kommunikatsiya hamda axborot orqali ta‘minlashga qaratilgan ixtisoslashtirilgan muassasidir.

Tashkilot xalqaro standartlarni belgilaydi, global muammolarni hal etish uchun turli mexanizm va vositalarni ishlab chiqadi hamda xalqaro hamkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, UNESCO Jahon madaniy merosi ro‘yxatini boshqarish bilan ham shug‘ullanadi. Tashkilot mamlakatlar o‘rtasida madaniy merosni himoya qilish, barqaror rivojlanish, inson huquqlari va ta‘lim sohasida umumiy standartlarni belgilashda yetakchi institutlardan biri bo‘lgani bois, uning har bir sessiyasi juda muhim ahamiyatga ega.

1996-yildan buyon Toshkentda UNESCO vakolatxonasi faoliyat yuritib keladi. Bugungi kunda uning Jahon merosi ro‘yxatida (2023-yil holatiga ko‘ra) O‘zbekistondan 7 ta obyekt mavjud bo‘lib, bu jami 1121 ta (2019-yil holatiga ko‘ra) obyektning 0,4 foizini tashkil etadi. Ulardan 5 tasi madaniy mezonlar bo‘yicha, 2 tasi esa tabiiy mezonlar asosida ro‘yxatga kiritilgan. Bundan tashqari, 2025-yil holatiga ko‘ra, yana 36 ta obyekt UNESCOning dastlabki ro‘yxatida turibdi.

Bugun yurtimizda yunitilayotgan pragmatik tashqi siyosat xalqaro tuzilmalar bilan aloqalarni yanada mustahkamlashni, mamlakatimiz ularning faoliyatida faol ishtirok etishini ta‘minlashni taqozo etmoqda. O‘zbekistonning xalqaro tuzilmalardagi tashabbuslarini butun dunyo tan olmoqda. Mamlakatimizda ko‘plab xalqaro tadbirlar o‘tkazilishi dunyo hamjamiyatining O‘zbekiston bilan tobora yaqinlashishga, uning madaniyati, rivojlanish tajribasini chuqur o‘rganishga intilayotganini ko‘rsatmoqda. Bu esa har bir o‘zbekistonlikka o‘zgacha g‘urur bag‘ishlaydi.

Joriy yil 30-oktabrdan 13-noyabrgacha Samarqand shahrida UNESCOning 43-sessiyasi o‘tkazilishi kutilyapti. Bunday tadbir nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ham tarixiy voqealikdir. Negaki, tuzilganiga 80 yil bo‘lgan UNESCO tarixida Parijdan tashqarida bo‘ladigan birinchi yirik umumiy konferensiya sifatida bu tadbir madaniyat diplomatiyasini rivojlantirish, ta‘lim va ilm

sektorida xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda O‘zbekistonning madaniy merosini global miqyosda namoyon etish uchun yangi imkoniyatlar taqdim etadi.

Ushbu yirik tadbir Samarqand shahrida o‘tkazilishi bejiz emas. Samarqand dunyoning eng qadimiy shaharlaridan biri. U insoniyat tarixida asrlar davomida Sharq va G‘arbi bog‘lovchi madaniyatlar chorrahasi bo‘lib kelgan. UNESCO sessiyasining aynan shu shaharda o‘tkazilishi tarixiy adolat timsoli bo‘lib, O‘zbekistonning madaniy diplomatiya sohasidagi tashabbuslarini to‘liq namoyon etadi. Sessiya doirasida madaniy merosni muhofaza qilish, ta‘lim tizimini raqamlashtirish va ilm-fan orqali jamiyat barqarorligini ta‘minlash masalalari muhokama etiladi.

Global siyosiy jarayonlarda madaniy diplomatiya va “yumshoq kuch” konsepsiyasi davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning muhim vositasiga aylanib bormoqda. Zamonaviy dunyoda ta‘sir kuchini faqat harbiy yoki iqtisodiy salohiyat emas, balki madaniyat, ta‘lim, fan, innovatsiya va inson kapitalini rivojlantirish orqali ham namoyon etish tendensiyasi kuchaymoqda. Shu ma‘noda, UNESCOning Samarqandda bo‘lib o‘tadigan 43-sessiyasi dunyo hamjamiyati uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Unda qabul qilinadigan qarorlar global barqaror taraqqiyotning asosiy omili — inson kapitaliga sarmoya kiritish, ta‘lim va fan orqali tinchlikni mustahkamlash, turli madaniyatlar va sivilizatsiyalar o‘rtasida ishonch, hamjihatlik va hamkorlik muhitini kuchaytirishga qaratilgan bo‘ladi. Bu esa jahon miqyosida madaniy muloqotni yangi bosqichga ko‘taradi, umuminsoniy qadriyatlarining tiklanishi va rivojiga zamin yaratadi.

Mazkur nufuzli tadbir O‘zbekistonning tashqi siyosiy imijiga ham ijobiy ta‘sir etadi. Samarqanddagi sessiya mamlakatning madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash, ta‘lim va ilm-fan orqali global hamkorlikni mustahkamlash yo‘lidagi faol va tashabbuskor siyosatini namoyon etadi. Bu O‘zbekistonni xalqaro maydonda konstruktiv, ochiq va insonparvar siyosat yurituvchi davlat sifatida tanitadi hamda uning “yumshoq kuch” salohiyatini yanada oshiradi.



Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Bu gaplar faqat da’vo emas, balki ularning ortida aniq natijalar bor. Oxirgi yillarda 7,5 millionga yaqin inson o‘z iqtisodiy ahvolini yaxshilashga erishdi. 2024-yil oxiriga kelib, kambag‘allik darajasi 8,9 foizga tushdi. Kelasi bosqichda esa bu ko‘rsatkichni 6 foizgacha kamaytirish rejalashtirilmoqda.

Birgina odamlarda tomorqa madaniyati shakllanayotgani natijasida har bir qarich yerdan samarali foydalanish nafaqat ehtiyoj, balki iftixor manbaiga aylanmoqda.

Farovonlik xorijda emas, hovlida

Bir necha oy avval Sirdaryo viloyatiga xizmat safari bilan borgandim. Safar davomida Yo‘lchi bobo Rahmonov xonadonida bo‘ldim. Uning hovlisidagi gul ko‘chatlari, issiqxona ichidagi mahsulotlar insonni hayratga soladi. Xonadon egasi kamtar, o‘rta bo‘yli, ko‘pni ko‘rgan, so‘zida hikmat bor 90 yoshli inson. Suhbatimiz davomida u hayotining katta qismini o‘qituvchilikka bag‘ishlaganini, olti o‘g‘lini katta qilib voyaga yetkazganini aytdi. O‘qituvchilik ortidan o‘z davrida 6 o‘g‘lini voyaga yetkazish, o‘qitish, uyli-joyli qilish imkonsizligini hisobga olib, katta ro‘zg‘orni tebratish uchun o‘g‘illaridan xorijda ishlab yurganlari ham bo‘lsa kerak degan o‘yda Yo‘lchi bobodan so‘radim. Yo‘lchi bobo bosh chayqab, “yo‘q” ishorasini berdi. Bu orada otaning kasbini davom ettirgan o‘g‘li Akrom Rahmonov gapga qo‘shildi:

— O‘tgan yili 48 million so‘m kredit olib, 7 sotix yerga issiqxona qurdim. Mart oyida bulg‘or qalampiri ekdim. Yoz boshida 22 million so‘m daromad oldim. Endi bozorga uzluksiz mahsulot yetkazib beryapmiz...

Shunda savolimga javob topgandek bo‘ldim. Yer bila tillashgan Yo‘lchi bobo xonadonida mehnat va bilim qadriyat sifatida katta ahamiyatga ega ekan. Bu xonadon imkonni xorijdan emas, hovlidan topishi mumkinligiga bir isbotdir.

Yo‘lchi bobo:
— Amerikada yashayotgan farzandlarim bor, lekin birovta o‘g‘lim mardikorlikka ketgani yo‘q. Rahmonovlar oilasida 17 nafar oliy ma‘lumotli bor, — deydi iftixor bilan.

Ijtimoiy taraqqiyot avval odamlarning ongi va hayot tarzini o‘zgartirishdan boshlanadi. Yo‘lchi ota va uning farzandlari ana shu haqiqatga yaqqol guvohlik qiladi.

So‘nggi yillarda tomorqa madaniyati shakllanib, yerga munosabat o‘zgardi. Ilgari kambag‘allik tushunchasi faqat qog‘ozda aks etar edi, hozir esa bu muammoga qarshi amaliy choralar ko‘rilmoqda. Bu ishlar “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi asosida amalga oshirilmoqda.

2025-yilda kamida 1 million fuqaroni kambag‘allikdan chiqarish, yil yakunigacha esa kambag‘allik darajasini 6 foizgacha tushirish rejalari oddiy raqamlar emas, balki odamlar hayotidagi haqiqiy o‘zgarishlardir. Endi insonlar mehnat qilgani uchun munosib daromad oladi, mehnati qadrlanadi. Chet elda ishlash orqali topiladigan daromad endilikda o‘z yurtida, o‘z oilasi bag‘rida topilmoqda. Bu ijtimoiy barqarorlik va umidning timsolidir.

Samarali mexanizm va mahalliy yechim

Bugun yurtimizda tomorqa madaniyati shakllanishi ortidan Yo‘lchi bobo kabi insonlarning tomorqadagi tajribasi ommlashtirilmoqda. Tomorqaga to‘g‘ri yondashilsa, bir oilani tebratish, kerak bo‘lsa, iqtisodiy ko‘tarilish mumkinligi oydinlashmoqda. Bugun yurtimizdagi islohotlar va kompleks dasturlar ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, iqtisodiy o‘rtni rag‘batlantirish hamda aholining turmush darajasini sezilarli

darajada yaxshilashga qaratilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalardan foydalanish va ularni milliy sharoitlarga moslashtirish orqali yangi samarali yondashuvlar yaratish muhim strategik vazifa hisoblanadi. Bu jihatdan Xitoyning kambag‘allikka qarshi kurashdagi tajribasi O‘zbekiston uchun nafaqat ilhom manbai, balki amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan aniq model sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xitoyning bu boradagi yutuqlari faqat iqtisodiy hajmi va aholi soni bilan bog‘liq emas, balki ijtimoiy siyosatni mukammallashtirishdagi yondashuvida ham ifodalanadi. Xitoy jamoatchilikning barcha qatlamlarini qamrab olgan, ehtiyojmandlar uchun kompleks yordam dasturlari, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, raqamli texnologiyalardan foydalanish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda. Bu jarayonda har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olingan holda, mahalliy darajada samarali mexanizmlar ishlab chiqilmoqda.

O‘zbekistonda ham shunday murakkab, bir qancha yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan dasturlar joriy etilmoqda. Boisi, Xitoy BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga belgilangan muddatdan o‘n yil avval erishib, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha dunyo yetakchisiga aylandi. Qisqa vaqt ichida yuz millionlab insonlarni kambag‘allikdan chiqarish imkonini bergan bu nodir tajriba butun dunyoda, xususan, O‘zbekistonda ham katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Xitoy modelini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish jarayoni mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy xususiyatlari hisobga olinib amalga oshirilmoqda. Bu esa kambag‘allikni qisqartirishda barqaror va inklyuziv yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Xitoyning samarali tajribasi O‘zbekistonda 2025-yildan boshlab amalga oshirilayotgan kambag‘allikka qarshi chora-tadbirlar uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda. 2025-yil boshida davlatimiz rahbari tomonidan Xitoy tajribasi asosida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha 32 ta yo‘nalishda yangi yondashuvlarni joriy etish e‘lon qilindi.

O‘tkazilgan tahlillar asosida ishlab chiqilgan aniq takliflar Prezidentning “2025-yilda aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi



qaroriga kiritildi. Ayrim yondashuvlar esa mahalliy darajada amalga oshirilmoqda.

Masalan, Xitoyning Inshan tumanida qo‘llanilgan “kompaniya — kooperativ — ferma” modeli O‘zbekistonda faol tatbiq etilmoqda. Ushbu tashabbus doirasida kambag‘al oilalarga yer ajratilmoqda, qishloq xo‘jaligi kooperativlari tashkil etilmoqda va barqaror ta‘minot tanjiri yaratilyapti. Rejaga ko‘ra, ijaraga berilgan yerlarda jami 492 ta kooperativ tashkil etiladi. Kooperativ a‘zolariga o‘z xo‘jaliklarini rivojlantirish va kooperativlar ustav kapitaliga ulush kiritish uchun eng kam ish haqining 10 baravari miqdorida subsidiyalar ajratish ham ko‘zda tutilgan.

Aktivlardan daromad olish sxemasi Xitoyning Shangan qishlog‘i tajribasi asosida kambag‘al oilalarni qo‘shma kooperatsiyalarga jalb etishni ko‘zda tutadi. Bu yo‘nalish baliqchilik, quyonchilik, chorvachilik, parrandachilik va asalarichilik kabi sohalarni qamrab oladi. O‘zbekistonning 30 ta tumanida shunday loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, ularga 4 mingga yaqin uy xo‘jaligi jalb etiladi. Loyihalar tadbirkorlik tashabbuslari va yetakchi fermerlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi, bu esa kambag‘al oilalarni qishloq xo‘jaligi kooperativlariga jalb qilish va moliyalashtirish imkoniyatini beradi.

Fupin modeli doirasida O‘zbekistonda kam ta‘minlangan 10 mingdan ortiq oilani jalb etgan holda 20 ming gektar o‘rmonzorda maxsus o‘simlik yetishtirishni rivojlantirish boshlandi.

“Xitoyning samarali tajribasi O‘zbekistonda 2025-yildan boshlab amalga oshirilayotgan kambag‘allikka qarshi chora-tadbirlar uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda. 2025-yil boshida davlatimiz rahbari tomonidan Xitoy tajribasi asosida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha 32 ta yo‘nalishda yangi yondashuvlarni joriy etish e‘lon qilindi.



Yerlar “mahalla yetitiligi” tavsiyasi asosida ijaraga berilayotgan bo‘lib, ko‘chatzorlar tashkil etilmoqda va barqaror daromad manbalari yaratilmoqda.

Navbatdagi misol, Xitoyning Venchuan tumani tajribasi asosida O‘zbekistonda brussonetiya sanoatini rivojlantirishdir. O‘zbekistonda brussonetiya yetishtirish va qayta ishlash bo‘yicha pilot loyiha amalga oshirilmoqda. Loyiha doirasida 20 kilo urug‘ va 30 ming ko‘chat xarid qilindi, shuningdek, 100 gektarda ekin maydonlari yaratish boshlandi.

Lunnan tajribasi asosida elektron savdo tizimini joriy etish esa zamonaviy raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Yoshlarning zamonaviy texnologiyalar bilan tanishishi, AT sohada malaka oshirishi va raqamli savdo platformalariga jalb qilinishi ularning iqtisodiy faolligini oshiradi. Bu esa, o‘z navbatida, kambag‘allikni qisqartirishda yangi imkoniyatlar ochadi. Bepul internet va onlayn savdo markazlari tashkil etish orqali aholiga yanada keng imkoniyatlar yaratish, mahsulotlarni sotish va xizmat ko‘rsatish sohasidagi yangi yo‘nalishlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Xitoy tajribasining O‘zbekistonga moslashtirilishi nafaqat ijtimoiy siyosatning, balki iqtisodiy barqarorlik va o‘rtni asosiy drayverlaridan biriga aylanmoqda. Bu orqali mamlakatda kambag‘allik darajasini sezilarli darajada tushirish, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan yangi bosqich boshlandi.

Loshan tumanida tashkil etilgan kasbiy ta‘lim muassasalari orqali kambag‘al va ehtiyojmand oilalar farzandlarining bilim olish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu texnikumlar nafaqat bilim berish, balki tadbirkorlik ko‘nikmalarini ham o‘rgatadi. Kasbiy ta‘lim sohasidagi bu tashabbuslar yoshlar bandligini ta‘minlash, jamiyatda faol ishtirok etishi va imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ish beruvchilar bilan hamkorlik orqali bitiruvchilarning ishga joylashishi ta‘minlanishi ushbu dasturning samaradorligini oshiradi.

Eng katta boylik

Tibbiy xizmat sohasida ham muhim loyihalar bor. Kam ta‘minlangan oilalar uchun bepul tibbiy xizmat ko‘rsatish dasturi aholining sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Tibbiy punktlar va uy-ma-uy xizmatlar orqali aholiga tez va sifatli tibbiy yordam ko‘rsatish imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni oshirish va aholi salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Davlat tomonidan subsidiya va kafolatlangan tibbiy xizmat dasturlari orqali esa kambag‘al qatlamlar xavfsizligi ta‘minlanmoqda.

O‘zbekistonda Xitoy tajribasini tatbiq etish jarayoni faqat texnik yoki iqtisodiy modellarni nusxa qilish emas, balki milliy sharoitlarga moslashtirilgan, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan, innovatsion va barqaror yechimlarni yaratishga qaratilgan.

Bu jarayonda davlat tomonidan tartibga solish, doimiy monitoring va natijalar tahlili amalga oshiriladi, bu esa dasturlar samaradorligida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xitoy tajribasini O‘zbekiston sharoitida samarali ro‘yobga chiqarish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun strategik

ahamiyatga ega. Bu tajriba ijtimoiy adolat, barqaror rivojlanish va iqtisodiy o‘rtni birlashtirib, aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladigan kompleks yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. O‘zbekistonda bu jarayonlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nafaqat kambag‘allikni qisqartirish, balki mamlakatning barqaror va inklyuziv taraqqiyotini ta‘minlashga ham xizmat qiladi.

Uchinchi muhim jihat — kasbiy ta‘lim muassasalari orqali ishchi kuchini tayyorlash. Kambag‘allikni qisqartirishda ta‘lim va malaka oshirishning roli katta. Kasbiy ta‘lim yoshlarning mehnat bozoriga kirishini osonlashtiradi, ularning ish topish imkoniyatlarini oshiradi va iqtisodiyotda talabga javob beradigan kadrlarni tayyorlaydi. Bu, o‘z navbatida, ishsizlikni kamaytirish va kambag‘allik darajasini tushirishga xizmat qiladi. Mahalliy tadbirkorlar va ish beruvchilar bilan hamkorlikdagi dasturlar mahalliy iqtisodiyotni quvvat va samarali ishchi kuchi bilan ta‘minlaydi.

Tibbiy xizmatlar sohasidagi islohotlar iqtisodiy jihatdan ham ahamiyatli. Sog‘lom aholi mehnat quvvati uchun asosiy shart hisoblanadi. Kam ta‘minlangan qatlamlarning sifatli tibbiy xizmat bilan ta‘minlanishi ularning mehnat faolligini oshiradi, kasalliklardan tez sog‘ayish va ishga tez qaytish imkonini beradi. Bu iqtisodiy faollikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi va ijtimoiy xarajatlarni kamaytiradi. Shuningdek, bepul tibbiy xizmatlar aholining ijtimoiy himoya hissini kuchaytiradi, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlaydi.

Barcha ushbu yo‘nalishlar davlat tomonidan tartibga solinib, monitoring qilinadi, bu esa loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xitoy tajribasida ham davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi muvozanat iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda ham bu prinsiplar asosida resurslar samarali taqsimlanmoqda.

Xitoy tajribasining O‘zbekistonga moslashtirilishi nafaqat ijtimoiy siyosatning, balki iqtisodiy barqarorlik va o‘rtni asosiy drayverlaridan biriga aylanmoqda. Bu orqali mamlakatda kambag‘allik darajasini sezilarli darajada tushirish, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan yangi bosqich boshlandi.

Bir so‘z bilan aytganda, kambag‘allikni qisqartirish shunchaki iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash yoki moddiy ko‘mak ko‘rsatish emas, balki inson salohiyatini ochish, jamiyatda teng imkoniyatlar muhitini yaratish va shaxsiy qadri yuksaltirishga qaratilgan murakkab, uzluksiz va tizimli jarayondir. Mazkur jarayonda dunyo tajribasi, jumladan, Xitoyda qo‘llangan



quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xitoy modelida asosiy urg‘u iqtisodiy samaradorlikka va barqaror o‘rtni oshirishga beriladi. Bu model O‘zbekistonda ham shu tamoyillar asosida joriy etilmoqda.

Birinchidan, quyosh energiyasi stansiyalari qurilishi kabi loyihalar iqtisodiy salohiyatni oshiradi. O‘zbekistonda energetika sohasining barqarorligi va samaradorligini oshirish uchun quyosh energiyasi sektori jadal rivojlanmoqda. Bu nafaqat elektr energiyasi ta‘minoti mustaqilligini, balki yangi ish o‘rinlari yaratish va mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantiradi. Quyosh energiyasi qurilmalari uchun zarur texnologiyalar va xizmatlar mahalliy korxonalar tomonidan ta‘minlansa, bu sohada qo‘shimcha iqtisodiy faollik paydo bo‘ladi, qo‘shimcha

qiyamat yaratiladi. Shu bilan birga, energiya ta‘minotidagi barqarorlik sanoatning boshqa tarmoqlarini ham rag‘batlantiradi.

Ikkinchidan, elektron savdo tizimi joriy etilishi mamlakat iqtisodiyotini raqamlashtirishni tezlashtiradi. Bu loyiha yoshlar orasida AT sohada malakali kadrlar tayyorlash va iqtisodiy faollikka jalb etishga xizmat qiladi. Internet savdosi va marketplace’lar orqali mahsulotlarning bozorga chiqishi yanada osonlashadi, bu kichik va o‘rta biznes rivojiga olib keladi. O‘z navbatida, kichik va o‘rta biznes aholi daromadini oshirish, soliq tushumlarini ko‘paytirish va umumiy iqtisodiy faollikni kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Uchinchi muhim jihat — kasbiy ta‘lim muassasalari orqali ishchi kuchini tayyorlash. Kambag‘allikni qisqartirishda ta‘lim va malaka oshirishning roli katta. Kasbiy ta‘lim yoshlarning mehnat bozoriga kirishini osonlashtiradi, ularning ish topish imkoniyatlarini oshiradi va iqtisodiyotda talabga javob beradigan kadrlarni tayyorlaydi. Bu, o‘z navbatida, ishsizlikni kamaytirish va kambag‘allik darajasini tushirishga xizmat qiladi. Mahalliy tadbirkorlar va ish beruvchilar bilan hamkorlikdagi dasturlar mahalliy iqtisodiyotni quvvat va samarali ishchi kuchi bilan ta‘minlaydi.

Tibbiy xizmatlar sohasidagi islohotlar iqtisodiy jihatdan ham ahamiyatli. Sog‘lom aholi mehnat quvvati uchun asosiy shart hisoblanadi. Kam ta‘minlangan qatlamlarning sifatli tibbiy xizmat bilan ta‘minlanishi ularning mehnat faolligini oshiradi, kasalliklardan tez sog‘ayish va ishga tez qaytish imkonini beradi. Bu iqtisodiy faollikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi va ijtimoiy xarajatlarni kamaytiradi. Shuningdek, bepul tibbiy xizmatlar aholining ijtimoiy himoya hissini kuchaytiradi, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlaydi.

Barcha ushbu yo‘nalishlar davlat tomonidan tartibga solinib, monitoring qilinadi, bu esa loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xitoy tajribasida ham davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi muvozanat iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda ham bu prinsiplar asosida resurslar samarali taqsimlanmoqda.

Xitoy tajribasining O‘zbekistonga moslashtirilishi nafaqat ijtimoiy siyosatning, balki iqtisodiy barqarorlik va o‘rtni asosiy drayverlaridan biriga aylanmoqda. Bu orqali mamlakatda kambag‘allik darajasini sezilarli darajada tushirish, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan yangi bosqich boshlandi.

Bir so‘z bilan aytganda, kambag‘allikni qisqartirish shunchaki iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash yoki moddiy ko‘mak ko‘rsatish emas, balki inson salohiyatini ochish, jamiyatda teng imkoniyatlar muhitini yaratish va shaxsiy qadri yuksaltirishga qaratilgan murakkab, uzluksiz va tizimli jarayondir. Mazkur jarayonda dunyo tajribasi, jumladan, Xitoyda qo‘llangan



25-oktabr — Ichki ishlar organlari xodimlari kuni

XALQ MEHRI VA ISHONCHINI QOZONIB...



Sharif QOBILOV,
O‘zbekiston Respublikasi
IIV akademiyasi professori

Boshlanishi 1-betda

Ayni paytda Ichki ishlar vazirligi markaziy apparati yanada optimallashtirildi. Uning tuzilmalari negizida Tezkor qidiruv, Jamoat xavfsizligi, Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash, Jazoni ijro etish, Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash va Qo'riqlash departamentlari tashkil etildi. Bu tizimning eng quyi bo'g'inidan eng yuqori bo'g'inigacha samarali faoliyatni yo'lga qo'yish imkonini bermog'da.

Tizimdagi barcha sohaviy xizmatlar qaytadan isloh qilinib, zamon talabidan kelib chiqqan holda xavfsiz turizmni ta'minlash, probatsiya, surishtiruv va kiberjinoatchilikka qarshi kurashishga ixtisoslashgan bo'linmalari yangidan tashkil etildi. Jinoyatlarni fosh etish borasidagi har bir protsessual harakatlarni audio va video qayd etish majburiyligi belgilandi. Shuningdek, ilg'or kriminalistik vositalar, masofadan turib so'roq qilish hamda mobil tergov qilish platformalari amalga tatbiq etildi.

Ichki ishlar tizimini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, haqiqiy xalqchil tizimga aylantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar bugungi kunda ham davom ettirilmoqda. Bu esa davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan "Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo'lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim bu — ichki ishlar organlaridir", degan hayotiy tamoyilning amaldagi ifodasidir.

Bugunga kelib tizim faoliyati tubdan takomillashtirildi, markaziy apparatdagi shaxsiy tarkibning 85 foizi bevosita aholi yashash punktlariga, quyi tizimlarga tushirildi. Ichki ishlar organlarini xalqqa yanada yaqinlashtirish, murojaatlarni tunu kun qabul qilish, mavjud muammolarni joyida va o'z vaqtida hal etish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Har oyning oxirgi yakshanba kuni ichki ishlar vazirining shaxsiy qabuli, o'ynang har yakshanba kunlari hududiy ichki ishlar organlari rahbarlarining qabul kunlari etib belgilandi.

IIO faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratining yangi tizimi o'rnatilgani, ichki ishlar organi boshlig'idan tortib, profilaktika inspektorigacha xalq oldida hisobot beradigan amaliyot joriy etilgani aholining ularga bo'lgan ishonchini yanada oshirmog'da.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 3-yanvardagi "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, joriy yilda har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish ustuvor vazifa etib belgilandi.

Dunyoda yangi O'zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va hamkorlikka intilish tamoyillari kuchaymog'da. Mamlakatimiz ichki ishlar organlari tizimi ham yangilanib, takomillashtirib bormog'da.

Bu tashkilotga avvallari eng ko'p e'tiroz uyg'otayotgan tizim sifatida qaralgan bo'lsa, bugun xalqning ishonchi va mehri qozonish uchun barcha imkoniyatlar ishga solinyapti. Fikrimiz dalili sifatida huquq-tartibotni ta'minlashni o'z hayotining ma'no-mazmuni deb bilgan halol, vatanparvar, yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mard, kasbiga va qasamyodiga sodiqlik bilan xizmat qilayotgan xodimlar safi kengayib borayotganini, ular Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Bobur kabi buyuk bobolarimizning jangovar mahoratini davom ettirayotganini aytishimiz mumkin.

Ichki ishlar organi xodimining zamonaviy qiyofasi, birinchi navbatda, o'tkir aql-idroki, yuqori professionaligi, madaniy yetukligi, namunal xloqiy fazilatlar bilan ajralib turadi. U keng dunyoqarashga, erkin fikrlash, oldindan ko'rish va faraz qilish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak.

Endi eskicha ishlab bo'lmagligi ravshan bo'lib qoldi. Kabinetda o'tirib buyruqbozlik qilishga chek qo'yildi. IIO xodimi xalqning ichida bo'lishi, uning dardu tashvishini o'rganishi, muammolarini o'z dardu tashvishi deb bilishi lozim.

Yuqoridagilarning barchasi hisobga olinib, IIV akademiyasida kadrlar tayyorlashda klaster va o'quv karyera tizimi samaradorligi oshirildi. Bakalvriat va magistratura o'quv rejalarini tubdan



Ichki ishlar organi xodimining zamonaviy qiyofasi, birinchi navbatda, o'tkir aql-idroki, yuqori professionaligi, madaniy yetukligi, namunal xloqiy fazilatlar bilan ajralib turadi. U keng dunyoqarashga, erkin fikrlash, oldindan ko'rish va faraz qilish, qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak.

yangilanib, yangi o'quv fanlari kiritildi. Kunduzgi ta'lim bakalavriatiga kursantlarni qabul qilish kvotasi 2025/2026-o'quv yilida 200 nafarga oshirildi va 2026/2027-o'quv yilida yana 200 nafarga ko'paytirilishi belgilandi. Magistratura qabul kvotasi 2025/2026-o'quv yilida 2 barobar oshdi.

Akademiyada bakalvriat ta'lim bosqichida raqamli texnologiyalar sohasida jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyati ixtisosligi tashkil etildi. Nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash maqsadida dual ta'lim joriy qilindi. Unga ko'ra, mashg'ulotlar haftaning 4 kuni akademiyada, 2 kuni Toshkent shahri IIBB hududiy IIOda tashkil etilishi, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lmagan IIO xodimlarini ta'limning masofaviy shakli bo'yicha o'qitish yo'lga qo'yildi.

Akademiyada hududida Innovatsion ta'lim fondi, IIV Kiberxavfsizlik markazi, "Xavfsiz shahar" tizimlarini rivojlantirish markazi, Raqamli texnologiyalar va huquqiy statistika departamenti, Ma'lumotlarni qayta ishlash markazi, Magistratura va avtomobil tayyorgarlik kafedrasini uchun yangi o'quv binosi, ko'p

funksiyali yopiq sport kompleksi hamda yer osti o'q otish tiri barpo etilmoqda.

Davlatimiz siyosatida xloqiy asoslar muhim o'rinni tutib, taraqqiyot va xalq farovonligi ushbu qadriyatlariga ham asoslanadi. Ma'naviyat jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo'lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo'ladi.

Yangi O'zbekiston "xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi

kerak" tamoyili amalda o'z tasdiqini topayotgan mamlakatga aylanmog'da. "Jamiyatga xizmat ko'rsatish" modeli yaratildi. Xodimlar ichki ishlar organlari rolini fuqarolarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy xizmat turi sifatida angamlmog'da.

2022-2026-yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlarini, inson qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish"ga, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida esa "huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlarini, qadr-qimmatini va fuqarolarning himoya qilish"ga yo'naltirish belgilangan.

Hozir ichki ishlar organlari xodimlari xizmat vazifalarini sidqildildan ado etmog'da. Kerak bo'lsa, o'z hayotini xavf-xatarga qo'yib, fuqarolar tinchligini ta'minlamog'da. Xodimlarda xalq nigohi bilan o'ziga baho berish ko'nikmasi shakllanyapti.

Ichki ishlar organlari xodimlari xalqni rozi qilish, e'tirofga loyiq bo'lish uchun hali juda ko'p ishlar qilishi lozim. Xalqimiz ularni nafaqat professional va mahoratlilik kasb egasi, balki muomala odobi va estetikasiga ega shaxs sifatida ko'rishni istaydi.

Mamlakatimizda inson qadri davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Konstitutsiyamizga ko'ra: "Insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas". Insonning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish ichki ishlar organlari xodimlarining muqaddas burchidir. Hech bir inson, kim bo'lishidan qat'i nazar, qonundan ustun emas. Qonunni ko'llashi kerak bo'lgan shaxslar uni buzishi ikki karra jinoyatdir.

IIO xodimlari davlatimizning maxsus xizmatchilari sirasiga kiradi. Bu esa har bir

xodimdan kasbiy obro'ni saqlashni talab etadi. IIOlarda o'tkazilayotgan islohotlar shaxsiy tarkib obro'sini ko'tarishga qaratilgan.

Bugun o'z ustida ishlamaydigan, kasb mahoratini, bilimini tinimsiz oshirib bormaydigan, "kunim o'tsa bo'ldi" deyidigan xodim tizimda ishlash olmasligi yaqqol ko'rinib qoldi. Shuningdek, katta shaxsiy tarkibga ega tuzilma obro'siga soya solayotgan, kibr-havoga berilgan, nojo'ya harakatlarga yo'l qo'yayotgan, ma'nadan buzuvchi xodimlar ham uchrayotgan afsuslanarli. Prezidentimiz uqtirganidek, "Qonunlarni, odamlarni mensimaydigan, ularga qo'pol munosabatda bo'ladigan, byurokratiya va korrupsiya balosiga berilgan har qanday rahbar bilan — u vazir yoki hokim bo'ladimi, boshqa mas'ul vazifadagi amaldor bo'ladimi — salbiy harakatlari bilan davlat obro'siga putur yetkazayotgan bunday kishilar bilan uzil-kesil xayrlashamiz".

So'nggi yillarda mamlakatimizdagi siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy vaziyat huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari imijini borasida ham o'zgarishlarga olib keldi. Gap endi cheksiz kuchga ega bo'lgan kuch imijidan qonunning vijdonli qo'riqchisi, adolatlilik va munosib posbon, o'z kasbidagi ziyoli obraziga ega bo'lgan xodimlar sulolasini shakllantirish haqida bormog'da.

Prezidentimiz aytganidek, ichki ishlar organlarini xalq mehri va ishonchini qozongan xalqchil tizimga aylantirishda insonlarga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ilgariidek faqat jazolash va qamash uchun emas, aksincha, aholi va ayniqsa, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, tarbiyalash, ularga g'amxo'rlik qilish, yordam berish kabi fazilatlarini qaror toptirish borasida keng ko'lamli ishlar yo'lga qo'yildi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ham politsiyachilari imijini yaratish va ular obro'sini saqlash muammosi mavjud. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, politsiyaning jamiyatdagi obro'si va bu kasbning fuqarolar ongida jozibadorligi, birinchi navbatda, ushbu faoliyat bilan shug'ullanadigan odamlarning ijtimoiy mavqei va davlat tomonidan kafolatlangan turli ijtimoiy manfaatlar tufayli yaratiladi.

IIO xodimlari obro'si va mavqei xodimning tashqi ko'rinishi, jozibadorligi, holati va kasbiy libosini kiyishiga ham bog'liq. Salobat, savlat va istsarali ko'rinish xodimning yaxshi moddiy holatini, kasbiy burchiga munosabatini ko'rsatadi. Bu sifatlar, albatta, bosqichma-bosqich bo'lsa-da, fuqarolarimiz ishonchini qozonishga olib keladi.

So'nggi yillarda IIO xodimlarining ijobiy qiyofasini yaratish uchun katta mablag' sarflanmog'da. Davlat buyurtmalar bo'yicha yirik byudjetli filmlar, kinojodkorlarimiz ishtirokida teleseriallar yaratildi. 2025-yilning ikkinchi yarmidan boshlab vazirlik tashabbusi bilan "Bir jinoyat omili va uning bartaraf etilishi" teleko'rsatuvi tayyorlanib, tizimli ravishda eifraga uzatilmog'da.

Ichki ishlar organlaridagi islohotlar tizim imijini shakllantirishda mayda-chuyda narsalar bo'lishi mumkin emasligi tamoyiliga asoslanadi. Hamma narsa, jumladan, IIO binolari arxitekturasini ham hisobga olinmog'da, xizmat avtomobilidagi parki muntazam yangilanmog'da.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda Ichki ishlar vazirligining barcha sohaviy xizmatlari xodimlari yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi yo'lida yuksak e'tiqod, bilim, kuch-g'ayrat bilan sidqildildan mehnat qilmog'da.

Nuqtayi nazar



Naibaxon MAMADALIYEVA,
filologiya fanlari doktori,
professor

Bundan o'ttiz olti yil avval qabul qilingan "Davlat tili to'g'risida"gi qonundan to hozirgi kungacha bo'lgan davrda o'zbek tilini rivojlantirishga qaratilgan muayyan chora-tadbirlar ko'rildi. Ammo Prezidentimizning 2025-yil 20-oktabrdagi "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori yangi O'zbekiston taraqqiyotida til siyosati sohasida yangi davrni boshlab berishi bilan alohida ahamiyatli. Chunki qarorda belgilangan vazifalar ma'naviyat, fan va iqtisodiyotni birlashtiruvchi o'ziga xos konseptual dastur hisoblanadi. Ya'ni unda davlat tilini davlat boshqaruvi, fan-texnika, raqamli iqtisodiyot va ta'lim jarayonlarining ischi tiliga aylantirish vazifasi ilgari surildi.

Bu, o'z navbatida, milliy tilning faqat ramz emas, balki innovatsion taraqqiyotning ma'lumot aylanishi tili sifatida tan olinishidir.

Shu o'rinda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori maslahatchisi sifatida faoliyat yuritayotganim bois, fikrimni mazkur yo'nalishdagi ishlar bilan asoslasam. Masalan, bugungi kungacha agentlik tizimida 1982 ta xalqaro standartlar davlat tiliga tarjima qilingan bo'lsa, shundan 144 tasi joriy yilda tarjima qilindi.

Ilgari ayrim standartlar xorijiy manbalardan to'g'ridan to'g'ri tarjima qilingani sababli ulardagi lingvistik nomuvofiqliklar amaliyotda tushunmovchiliklarga sabab bo'lardi. Shu ma'noda, qaror faqat gumanitar yo'nalishga tegishli emas, balki iqtisodiyotning barcha texnik tarmoqlari — standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash tizimlariga ham bevosita daxldordir. Chunki bu tizimlar milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini, bozordagi ishonchliklarni va xalqaro talablarga mosligini belgilaydi. Shu bois, ularda davlat tilining aniq va sof qo'llanilishi davlat siyosati darajasidagi vazifaga aylanadi. Shunga binoan, bu kabi hujjatlar qayta ko'rib chiqiladi, ulardagi noaniq ifodalar davlat tili me'yorlariga mos holda tahrir qilinadi. Bu jarayon nafaqat tarjima, balki mazmun jihatidan ham milliy an'analariga muvofiqlashtirishni nazarda tutadi.

Sohadagi barcha atamalarni yagona tizimga solish, ularning ma'no va qo'llanilish doirasini belgilash maqsadida maxsus "Standartlashtirish atamalarining davlat tili reyestri"ni yaratish ko'zda tutilmog'da. Ushbu ma'lumotlar bazasi interaktiv platforma orqali jamoatchilikka taqdim etiladi. Bu tizim nafaqat ilmiy izchillikni ta'minlaydi, balki tadbirkorlar, muhandislar va standart ishlab chiquvchilar uchun ishonchli manbadir.

Shuningdek, barcha texnik reglamentlar va me'yoriy hujjatlar uchun davlat tilida ilmiy-amaliy izohlar bazasini yaratish rejalashtirilmoqda. Bu orqali har bir me'yorning mazmuni faqat mutaxassislar uchun emas, balki tadbirkorlik subyektlari va keng jamoatchilik uchun ham tushunarli bo'ladi. Natijada standartlashtirish sohasi davlat tilida yagona ilmiy me'yorga

har bir hujjat bir xil tildagi ma'noviy aniqlikka ega bo'ladi. Metrologiya tizimining ilmiy va ta'limiy yo'nalishlarining integratsiyasini yo'lga qo'yish maqsadida "Metrologiya va til madaniyati" nomli maxsus o'quv modulini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu modul orqali metrolog mutaxassislar faqat o'lgash nazariyasini emas, balki ilmiy bayonning to'g'ri til normalarini ham



ega bo'ladi. Har bir standartning mazmuni davlat idoralari, ishlab chiqaruvchilar va ilmiy jamoatchilik tomonidan bir xil talqin etiladi.

Bu esa nafaqat ish jarayonidagi samaradorlikni oshiradi, balki davlat tilining fan va texnika sohasida haqiqiy ischi til sifatida qaror topishiga zamin yaratadi.

Metrologiya sohasidagi atamalarni yagona izohli lug'atga jamlash va uning elektron bazasini yaratish ham muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu bilan metrologik faoliyatda atamalarining turlicha qo'llanilishi barham topadi,

o'zlashtiradi. Shu tariqa davlat tili metrologik fikrlashning asosiy vositasiga aylanadi.

Mazkur vazifalar ijrosi uyg'unlashib, O'zbekiston metrologiya tizimidagi barcha me'yoriy, amaliy va ilmiy jarayonlar davlat tilida birlashadi. Bu nafaqat fan sohasidagi muhim qadam, balki davlat boshqaruvining sifat va ishonch kafolati hisoblanadi. Davlat tili bu sohada faqat ifoda vositasi emas, balki aniqlik va ishonch mezonini sifatida qaror topadi.

Qolaversa, sertifikatlashtirish jarayonida ham rus va ingliz tillaridan keng foydalanilari edi.

Bu ba'zan hujjat mazmunidagi noaniqliklarga, huquqiy bahslarga yoki mahsulotning to'g'ri identifikatsiya qilinmasligiga sabab bo'lardi. Bugungi kunda har bir sertifikat, deklaratsiya, sinov bayonnomasi va muvofiqlik guvohnomasi davlat tilida rasmiylashtiriladi. Bu talab faqat til siyosati nuqtayi nazaridan emas, balki hujjatlarining huquqiy kuchini mustahkamlashda ham muhim. Davlat tilida rasmiylashtirilgan hujjat bu — qonun tan olingan, huquqiy kuchga ega manba hisoblanadi. Buning natijasida ishlab chiqaruvchi korxonalar, nazorat organlari va iste'molchilar o'rnatidagi axborot almashinuvi aniq va shaffof bo'ladi.

Qarorda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, xorijiy mahsulotlar uchun taqdim etilgan sertifikat va bayonnomalarni davlat tilida qo'llash tizimi joriy etildi. Ya'ni xorijda berilgan sertifikatlar to'g'ridan to'g'ri qabul qilinmasdan, ularning mazmuni davlat tilidagi ekvivalent shaklda tarjima va huquqiy tahlil orqali tasdiqlanadi. Bu mahsulot xavfsizligi va sifatini baholashda xalqaro ishonchni oshiradi, bir vaqtning o'zida milliy huquqiy tizim bilan uyg'unlikni ta'minlaydi.

Davlat tilini sertifikatlashtirish sohasiga joriy etish faqat idoraviy ishni yengillashtirish emas, milliy mahsulotlarning xalqaro bozordagi nufuzini oshirish yo'li hamdir. Chunki har bir davlat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z tilida ifodalay olsa, u intellektual va iqtisodiy mustaqillikka ega bo'ladi.

Aytish kerakki, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, qurilish, energetika, kimyo, tibbiyot, axborot texnologiyalari va boshqa yo'nalishlarda alohida atamalar lug'atlari ishlab chiqilgan.

Biroq bu lug'atlar ko'p holda o'zaro muvofiq emas: ayrim atamalarda bir xil tushuncha turlicha izohlangan, ba'zilarida esa faqat tarjima asosida berilgan, ma'noviy aniqlik yetishmaydi. Bu holat sohadagi ilmiy, huquqiy va amaliy ish jarayonlarida noaniqliklarga olib keladi. Masalan, "kalibrash", "verifikatsiya", "muvofiqlik bayoni", "o'lgash vositasi", "sertifikatlashtirish organi" kabi atamalar turli manbalarda bir-biriga zid yoki turlicha talqin qilinadi. Bu esa davlat tilining aniq ilmiy ifodalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, davlat miqyosida yagona atamashunoslik siyosati va lingvistik standartlar tizimini yaratish zarur. Buning amaliy mexanizmi sifatida "Interaktiv atamalar banki" tashkil etilib, u standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalaridagi barcha terminlarni qamrab oladi. Ushbu platforma faqat ma'lumotlar bazasi emas, balki jonli ilmiy muhokama va atama ekspertizasi maydoni sifatida ham ishlashi kerak. Bunda har bir atama ma'noviy jihatdan to'liq yoritiladi. Bu, ayniqsa, ilmiy va texnik soha mutaxassislari uchun muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, atamalarni bir xillashtirishda ilmiy muassasalar, universitetlar va sohaviy agentliklar o'rnatidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yo'l bilan davlat tilidagi atamalar faqat tilshunoslik sohasi emas, balki texnik, yuridik va axborot tizimlari uchun ham bir xil ilmiy mezoniga ega bo'ladi. Bu nafaqat til birligiga, balki fan va amaliyot uzviyligiga ham xizmat qiladi.

Bunday raqamli va atamashunoslik innovatsiyalari davlat tilini axborot texnologiyalarining lingvistik asosiga aylantiradi. Natijada har bir davlat hujjati, standart yoki sertifikat nafaqat huquqiy jihatdan, balki til nuqtayi nazaridan ham milliy aniqlik va ilmiy yetuklik timsoliga aylanadi. Bu jarayon nafaqat til sohasida, balki iqtisodiy raqobatda ham yangi imkoniyatlar yaratadi. Milliy tildagi aniq standartlar va sertifikatlar xorijiy sheriklar uchun ishonch belgisiga aylanadi. Qisqa qilib aytganda, qarorning texnik sohalaridagi ijrosi davlat tilini yangi bosqichga olib chiqadi. U faqat adabiy yoki ma'naviy murij etilgan, balki ilmiy-texnik muloqot va iqtisodiy rivojlanishning asosiy tiliga aylanadi.

A large, colorful archway with a blue dome and minarets, featuring the word 'WELCOME' in the center, set against a backdrop of trees and a clear sky.

A photograph showing several tall, cylindrical stone pillars standing in a desert landscape. The pillars are made of stacked stones and are surrounded by low-lying desert vegetation and other smaller stone structures. The sky is clear and blue.



Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy